Xalqaro tajriba: O’rta Osiyo qadimgi hunarmandchiligi

O’zR FA Milliy arxeologiya markazida “O’rta Osiyo qadimgi hunarmandchiligi” mavzusida seminar o’tkazildi. Unda Milliy arxeologiya markazi xodimlari, proffesor ustozlar, talabalar hamda onlayn tarzda hududlardagi soha mutaxassislari ishtirok etishdi. Shuningdek, seminarda ispaniyalik izlanuvchi Barselona universiteti professori Veronika Martines Ferrera hamda frantsiyalik tadqiqotchi, O’rta Osiyo tarixi mutaxassisi, professor Bertille Lionet xonim ham ishtirok etdi.

Seminar avvalida FA Milliy arxeologiya markazi rahbari Farhod Maqsudov bugungi kunda arxeologiya sohasida olib borilayotgan keng ko’lamli izlanishlarning samaralari, yutuq va yangiliklari haqida ma’lumot berdi.

Arxeologik izlanishlar vaqt o’tgan sayin yangi muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Endilikda arxeologlar topilmalarning texnologiyasi haqida taxminiy emas aniq ma’lumotlarni qo’lga kiritishmoqda. Seminarda o’z izlanishlari haqida so’zlab bergan professor Veronika Martines xonim Surxondaryo viloyatida olib borilgan ilmiy ishlarda, sopol idishlarning tarkibiy xususiyatlari, saqlanish omillari haqida ma’lumotlar berdi.

Darhaqiqat, Surxon vohasi O’rta Osiyo kulolchiligining ilk o’choqlaridan biri sanaladi. Vohaning turli arxeologik yodgorliklaridan topilgan kulolchilik buyumlari, ayniqsa, bronza davrida yuksak did bilan yasalgan nafis, bejirim xurmocha, ko’za, qadah va boshqa sopol idishlar qadimiy xalq hunarmandchilik texnologiyasining o’ta yuksak darajada bo’lganidan darak beradi.

O’tmishda tuproqdan qo’l kuchi bilan shunday nafis san’at asarlari, noyob buyumlar yaratilganiga qoyil qolmay iloj yo’q. Seminar davomida ana shunday noyob sopol idishlarning na’munalari ko’rsatildi. Sopolning o’zidan bir nechta uslubda idishlar yasalgan bo’lib, ayrimlariga turli toshlardan qorishmalar tayyorlab foydalanilganini ko’rish mumkin.